

Paxtachi tumani qishloq xo‘jaligi sohasining 2025 yil 3-chorak yakuni bo‘yicha HISOBOTI

– asosiy tarmoqlar: **paxtachilik, g‘allachilik, chorvachilik;**

– yer maydoni **137 ming 578 gektar**ni, shundan qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlar **111 ming 188 gektar**, shundan:

1. Jami ekin yerlari **19 331 gektar**;

1.1 shu jumladan, sug‘oriladigan yerlar **17 485 gektar**;

2. Ko‘p yillik daraxtzorlar **1 843 gektar**;

2.1 Bog‘lar **863 gektar**;

2.2 Uzumzorlar **162 gektar**;

2.3 Tutzorlar **328 gektar**;

3. Bo‘z yerlar **170 gektar**;

4. Yaylov yerlar **89 374 gektar**ni tashkil qiladi.

Tumanda **436** ta, shundan paxtachilik-g‘allachilik yo‘nalishida **213** ta, bog‘dorchilik uzumchilik yo‘nalishida **56** ta, **chovachilik** va **baliqchilik** yo‘nalishida **27** ta, yo‘nalishdagi **140** ta **fermer xo‘jaliklari** faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan qishloq xo‘jaligida, xususan, qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda **zamonaviy intensiv** va **resurstejamkor** texnologiyalarning joriy etish orqali hosildorlikni paxtada **45-50 s/ga** va g‘allada **90-100 s/ga** yetkazish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 29 yanvardagi “Paxtachilikda yuqori samarali intensiv agrotexnologiyalarni qo‘llash va xorijiy g‘o‘za navlari maydonlarini kengaytirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 43-sonli qaroriga asosan, tumanda joriy yilda paxtachilikda ijobiy ilg‘or tajribalarni kengaytirish maqsadida jami **7333,0 gektar**, shundan **965** gektar maydonda (13%) zamonaviy intensiv usulda hamda **6368,0 gektarda** (87%) an‘anaviy usulda xorijiy va mahalliy paxta navlari yetishtirib bugungi kunda paxta terim ishlari qizg‘in olib borilmoqda.

Tumanda 2025 yil hosili uchun **6454,0 gektar** maydonda g‘alla parvarish qilingan. 2025 yil hosilidan davlat xaridlari uchun jami **19461,0 tonna** (sh.j 12403 tonna vaqtincha saqushsh uchun, **6337,0 tonna** davlat zaxirasi uchun va **721,0 tonna** urug‘lik uchun) don sotish rejalashtirilgan.

Amalda shundan davlat xaridlari uchun **19784,0 tonna** ya‘ni (101,7%)ga bajarildi, shunda, **12631,0 tonna** vaqtincha saqlash uchun ya‘ni (101,8%)ga, **6337,0 tonna** davlat zaxirasi uchun ya‘ni (100%)ga va **818,0 tonna** urug‘lik uchun ya‘ni (113,4%)ga ortig‘i bilan bajarildi.

Tumanda 2025 yil hosili uchun g‘alladan va ertaki ekinlardan bo‘shagan **6268,0 gektar maydon**larga takroriy ekinlarni turlari bo‘yicha ekilishi rejalashtirilgan.

Shundan, dukkakli **3082,0 gektar**, Ozuqa ekinlar **2360,0 gektar**, kartoshka **250,0 gektar**, sabzavot **116,0 gektar**, moyli ekinlar **460,0 gektar** maydonga klaster va fermer xo‘jaligi o‘z ehtiyoji uchun, fermer xo‘jaligi a‘zolari, “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”da ro‘yxatda turgan fuqarolar uchun ajratib berilib to‘liq ekilib bugungi kunda yig‘ishtiril olinmoqda.

2025 yilda pillachilik sohasida pillakorlarimiz **322,0 tonna** ipak qurti hosilini terib olib belgilangan shartnomaviy rejaga nisbatan **100,2%** ga pilla hosili ortig‘i bilan bajardilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi "Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-144-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, Paxtachi tumanida suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilish rejasi **2945 gektar** bo'lib, shu jumladan tomchilatib sug'orish **1210 gektar**, yomg'ir latib sug'orish **150 gektar**, diskret sug'orish **325 gektar**, egiluvchan quvurlar yordamida sug'orish **460 gektar**, egatga plyonka tushab sug'orish tizimi **40 gektar**, yerlarni lazerli tekislash **760 gektar** belgilanganib va ushbu maydonlarda tomchilatib sug'orish ishlari amalga oshirildi.

2026 yil g'alla hosili uchun jami **198 ta** fermer xo'jaliklari tomonidan **6454 gektar** maydonga g'alla ekish ishlari olib borilmoqda.